

**SUV OMBORLARIDA SODIR BO‘LISHI MUMKIN
BO‘LGAN FAVQULODDA VAZIYATLAR VA
ULARDAN MUHOFAZALANISH USULLARI**

Amirov Muxtor Uktamovich

Toshkent davlat transport universiteti

muxtor_amirov@tstu.uz tel: 93-703-87-63

Annotatsiya: Ushbu maqola gidrotexnik inshootlarda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan avariya va halokatlarda harakat qilish usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va ulardan muhofazalanish usullari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Gidrotexnika inshooti, suv omborlari, evakuatsiya, gidrodinamik avariylar, halokatli suv bosishlari, toshqin.

Abstract: This article is devoted to methods of action in the event of accidents and disasters that may occur in hydraulic structures, and describes possible emergency situations and methods of protection against them.

Key words: Hydraulic engineering structure, reservoirs, evacuation, hydrodynamic accidents, catastrophic flooding, flood.

Gidrotexnika inshootlarning buzilishi juda katta hududlarni, jumladan: shaharlar va aholi yashash joylarni, sanoat tarmoqlarini va moddiy resurslarni suv ostida qolishiga olib kelishi mumkin, oqibatda juda katta ham ma‘naviy, ham moddiy zararlarni olib kelishiga sabab bo‘ladi. Suv urib ketgan inshootlar, avtomobil va temir yo‘llar, elektr va aloqa uzatish simlarining zararlanishi, chorva mollari, qishloq xo‘jalik ekinlari hosili, ekinzorlar va boshqalarnig nobud bo‘lishi, xom ashyo, yoqilg‘i, oziq-ovqat mahsulotlari, o‘g‘itlar va boshqa resurslarni yaroqsiz holga kelishi, aholini xavfsiz hududga vaqtincha evakuatsiya qilish harajatlari, yerlarning hosildorlik qatlamining yuvilib ketishi, suv bosgan hududlarda oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va boshqa kerakli mahsulotlarni olib kelish harajatlari va boshqa salbiy talofatlarga olib keladi.

Buzilishiga olib keluvchi ta’sirlar: tabiiy ofatlar (zilzila, ko‘chki, jala); yemiruvchi kuchlar: suv oqimi, baliq-cho‘kindilar, statistik va dinamik kuchlar, metall zichlashishi, yerning yuvilishi, loyihalash va qurilishdagi xatoliklar, ishlatish qoidalarini buzilishi, terroristik harakatlar. Terrorchilik va qo‘poruvchilik harakat sharoitida yoki favqulodda vaziyat jarayonida gidrotexnik inshootlar ma‘lum xavf tug‘diradi.

Gidrotexnika inshootlarni muhofaza qilish favqulodda vaziyatni oldini olishning eng asosiy omillaridan bo‘lib, avvalo gidrotexnika inshootni to‘g‘ri loyihalash, qurish

va ulardan to‘g‘ri foydalanish, belgilangan ishlarni va ta‘mirlash ishlarni vaqtida bajarish, qirg‘oqni mustahkamlash va tub mahkamlash ishlarini vaqtida o‘tkazishi lozim.

Suv chiqarishni vaqtga muvofiq qayta taqsimlash yo‘li bilan suvning maksimal zahirasi va maksimal sarflanishini kamaytirish, qo‘shimcha suv omborlari yordamida toshqin suvlar oqimini tartibga solib turishi kerak.

Bulardan tashqari gidrotexnika inshoot ahvolini doim kuzatib turish (uskuna-jihozlar va yuksak malakali mutaxassislar yordamida), FVDT tarkibiga kiruvchi funksional kichik tizimlari va organlarini sohaga aloqali faoliyatini tizimli nazorat qilib turish, gidrotexnik inshoot zonasini begona kishilar kirishidan ishonchli qo‘riqlash ishlarini olib borish talab etiladi. Falokatlarga olib keladigan noqulay omillar bo‘lishi ehtimolini oldindan aytish tahminlarini tuzish uchun gidrometeorologik sharoitni muntazam kuzatib borish eng muhim masala hisoblanadi.

Bu borada Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 7-apreldagi 174-son [Qarori](#) “O‘zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek, ichimlik suv va maishiy suv ta‘minotining, davolash va madaniy-sog‘lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonalarini” belgilab qo‘yilgan.

Suvni muhofaza qilish zonalarini va suv inshootlarining sanitariya muhofazasi zonalarini (okruglari)ni belgilash tartibini, shuningdek, suv resurslari ifloslanishi, bulg‘anishi va tugashining oldini olish uchun bu zonalarda xo‘jalik faoliyati tartibini boshqarib boradi.

Suv omborlari va boshqa suv havzalari atrofiga, shuningdek, daryolar, magistral kanallar va kollektorlar bo‘ylab suvni muhofaza qilish zonalarini va kirk‘oqbo‘yi mintaqalar belgilanadi; xo‘jalik-ichimlik suv ta‘minoti manbalari atrofida sanitariya muhofazasi zonalarini va sanitariya-himoya mintaqalari belgilanadi; mineral suvlar va boshqa davolash vositalari manbalari atrofida sanitariya muhofazasi okruglari belgilandi.

Suvni muhofaza qilish zonalarining belgilanishi suv omborlari va xo‘jalik-ichimlik suv ta‘minoti, davolash va aholining madaniy-sog‘lomlashtirish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan boshqa suv manbalarining zonalarini va sanitariya muhofazasi okruglarini belgilash zaruriyatini istisno etmaydi.

Suvni muhofaza qilish zonalarini va sanitariya muhofazasi zonalarini (okruglari) tabiatni muhofaza qilish organlari va tegishli suv inshootlaridan foydalanuvchi vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, birlashmalar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning takliflari bo‘yicha belgilandi. Hozirda “Suvni muhofaza qilish zonalarini” deb ataladi.

Suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash bo‘yicha ishlar gidrologik, gidrogeologik, muhandislik-geologiya, sanitariya-epidemiologiya, agroxo‘jalik,

tuproq, geobotanik va topografik qidiruvlar va tadqiqotlar ma'lumotlaridan foydalanilgan holda loyiha tashkilotlari mutaxassislari tomonidan bajariladi.

Suv omborlari va boshqa suv havzalarining suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash: Suvni muhofaza qilish zonalarining kengligi suv omborlari va boshqa suv havzalarining vazifasidan, ularga tutash yerlarning tavsifi va ulardan xo'jalik jihatdan foydalanishdan, joyning relefidan kelib chiqqan holda belgilanishi va quyidagicha bo'lishi kerak:

katta suv omborlari va boshqa suv havzalari (sig'imi 1,1 dan 10 kub kilometrgacha bo'lgan) atrofida — 300 — 500 metr;

o'rtacha suv omborlari va boshqa suv havzalari (sig'imi 0,6 dan 1 kub kilometrgacha bo'lgan) atrofida — 200 — 300 metr;

kichik suv omborlari va boshqa suv havzalari (sig'imi 0,2 dan 0,5 kub kilometrgacha bo'lgan) atrofida — 100 — 200 metr;

juda kichik suv omborlari va suv havzalari (sig'imi 0,1 kub kilometrdan kam bo'lgan) atrofida — 100 metrgacha.

Daryolarning suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash: Daryolar, soylar va irmoqlarning suvni muhofaza qilish zonalarini kengligi geomorfologik, gidrogeologik sharoitlar hisobga olingan holda, tutash yerlardan foydalanish xarakteri hamda o'rtacha ko'p yillik sarfga ko'ra quyidagi miqdorlarda qabul qilinadi:

katta daryolarda (suv sarfi sekundiga 100 kub metrdan ortiq) — 300—500 metr;

o'rtacha daryolarda (suv sarfi sekundiga 5 kub metrdan 100 kub metrgacha) — 100 — 300 metr;

kichik daryolarda (suv sarfi sekundiga 2 kub metrdan 5 kub metrgacha) — 50 — 100 metr;

juda kichik daryolarda (suv sarfi sekundiga 2 kub metrgacha bo'lgan soylar) — 50 metragacha.

Suvni muhofaza qilish zonasining kengligi daryoning butun uzunligi bo'ylab uning har bir bo'lagida suv sarfiga bog'liq ravishda har xil belgilanadi.

Daryo va soylarning qirg'oqlari bo'yicha suvni muhofaza qilish zonasi doirasida qirg'oq mintaqasi ajratib ko'rsatiladi. Bu mintaqada xo'jalik faoliyati yuritish qat'iy cheklab qo'yiladi hamda u yoki bu sanoat-fuqaro qurilishi, uy-joy, ijtimoiy-maishiy va madaniy inshootlar qurish taqiqlanadi. Daryo va soylar qirg'oqbo'yi mintaqasining kengligi suvning o'rtacha ko'p yillik kesimiga ko'ra aniqlanadi hamda daryolarda ularga tutashib ketgan ekin maydonlariga va qirg'oq qiyaliklari tikligiga bog'liq ravishda quyidagi hajmlarda belgilanadi:

shudgor va ko'p yillik daraxtzor joylarda qiyaliklar tikligi 3 gradusgacha bo'lsa — 35 — 55 metr va 3 gradusdan ortiq bo'lsa — 55 — 100 metr;

pichanzor va yaylovlarda qiyaliklar tikligi 3 gradusgacha bo'lsa — 25 — 35 metr va 3 gradusdan ortiq bo'lsa — 35 — 50 metr;

oʻrmon va daraxtzor-changalzor maydonlarda qiyaliklar tikligi 3 gradusgacha boʻlganda — 35 — 55 metr va 3 gradusdan ortiq boʻlganda — 55 — 100 metr.

Magistral kanallar va kollektorlarning suvni muhofaza qilish zonalari va qirgʻoq boʻyi mintaqalarini belgilash: Suvning holatiga taʼsir koʻrsatishning oldini olish maqsadida sekundiga 50 kub metrdan ortiq suv oʻtkazish quvvatiga ega boʻlgan magistrall kanallar, loyiha-hisob-kitob suv sarfi sekundiga 10 kub metrdan ortiq boʻlgan magistrall kollektorlar boʻylab suvni muhofaza qilish zonalari belgilanadi.

Magistral kanallar va kollektorlar suvni muhofaza qilish zonalarining kengligi geomorfologik, gidrogeologik sharoitlar, tutashib ketgan yerlardan foydalanish xarakteri hisobga olingan holda belgilanadi hamda ajratib olish mintaqasi chegarasidan quyidagi hajmlarda qabul qilinadi:

sekundiga 50 dan 100 kub metrgacha suv oʻtkazish quvvatiga ega boʻlgan magistrall kanallar, loyiha hisob-kitob suv sarfi sekundiga 10 dan 20 kub metrgacha boʻlgan kollektorlar uchun — 100 metr;

sekundiga 100 dan 150 kub metrgacha suv oʻtkazish quvvatiga ega boʻlgan magistrall kanallar, loyiha-hisob-kitob suv sarfi sekundiga 20 dan 50 kub metrgacha boʻlgan kollektorlar uchun — 200 metr;

sekundiga 150 kub metrdan ortiq suv oʻtkazish quvvatiga ega boʻlgan magistrall kanallar, loyiha-hisob-kitob suv sarfi sekundiga 50 kub metrdan ortiq boʻlgan kollektorlar uchun — 300 metr.

Halokatli suv bosish

Haloqatli suv bosishning shikastlovchi omillari va koʻrsatkichlari suv omborining oʻlchamlariga, toʻgʻonning balandligiga, urib ketgan toʻlqinning tezligi va balandligiga, yer yuzasi qandayligiga va boshqa sharoitlarga ham bogʻliq boʻladi.

Suv bosish zonasi – hududning gidrotexnika inshootlariga tutash va suv ostida qolishi mumkin boʻlgan qismi.

- urib ketgan toʻlqin zarbidan saqlanish uchun shoshilinch choralar koʻriladi (balandlik joyga, pishiq inshoot ustiga chiqiladi, bordiyu toʻlqin yetib kelib qolsa-uning ichiga shoʻngʻiladi);

- oldindan tayyorlab quyilgan qutqaruv vositasini (4-6 ta bir litrli plastmassa idishlar osilgan najot kamarini) taqib olinadi;

- agar odam imorat ichida (cherdakda va boshqa joyda) qolgan boʻlsa, qaerdaligini belgilab, qutqaruvchilar moʻljall olishi uchun signal (kunduzi umuman bayroq-yaxshisi oq bayroq, kechasi esa fonus) osib quyiladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgust kunidagi “Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida”gi 242-sonli Qarorida aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish oldini olish, ular yuzaga kelganda ziyon va zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida:

- suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlaridan foydalanish xavfsizligini, ularda avariylar va halokatlarning yuzaga kelishi ehtimollarini prognozlashtirish.

- suv xo‘jaligi ob‘ektlarining ish rejimini o‘zgartirish yoki keyinchalik foydalanish zaruratini belgilash, suv omborlaridan suvni avariyaning oldini olish maqsadida chiqarib yuborish.

- suv omborlarida signalizatsiya va xabar berishning mahalliy avtomatik tizimlarini yaratish.

- FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari bilan birgalikda suv bosishi, toshqinlar, sellarning oldini olish va ularning halokatli oqibatlarini kamaytirish hamda toshqinlar suvlari va sellarning avariya-siz o‘tkazilishini ta‘minlashga oid kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar majmuini tashkil etish, ishlab chiqish va amalga oshirish.

- suv omborlari, daryolar va kanallardagi gidrotexnika inshootlarining holatini nazorat qilish.

- suv omborlarining gidrologik rejimi, toshqinlar va halokatli suv bosishlari monitoringini olib borish.

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, FVDTning manfaatdor funksional va hududiy quyi tizimlari hamda aholini favqulodda vaziyatlar zonalaridagi sanitariya-veterinariya va agrokimyoviy vaziyat, kutilayotgan toshqinlar hamda to‘g‘onlar va suv omborlarining gidrotexnika inshootlari va boshqa suv manbalarining urib ketishi bilan bog‘liq halokatli suv bosishlar to‘g‘risidagi axborot bilan ta‘minlash FVDT ning asosiy vazifalari qilib belgilangan.

Ogohlantirish chora-tadbirlari. Agar siz gidrouzelga tutashgan hududda yashasangiz, hududni halokatli suv bosish maydoni ta‘sir doirasida tushishi-tushmasligini aniqlang. Yashayotgan joyingiz yaqinida tepaliklar joylashganligini, ularga olib boruvchi qisqa yo‘llarni bilib oling.

Masalan, gidrotexnika inshooti ob‘ektida suv toshqini bo‘lganda mana bunday axborot beriladi: “Diqqat barchaga!!! Favqulodda vaziyatlar vazirligi (shahar bo‘lim yoki boshqarmasi)dan gapiramiz Fuqarolar! Suv toshqini sodir bo‘ldi. Zudlik bilan belgilangan evakuatsiya yig‘uv maskaniga yig‘ilishingiz so‘raladi”.



1-rasm. Aholiga xabar berish vositalari.

Radioeshittirish va televideniye (jo‘r ovoz bo‘ladigan radiouzatgichlarni ham qo‘shib) aholiga xabar berish va ommaviy axborotni yetkazishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Yorish to‘lqini ta‘siri va joyning halokatli suv bosishda harakat qoidalarini, umumiy va qisman evakuatsiya tartibi qoidalarini o‘rganib, oila a‘zolaringizni ham tanishtiring. Evakuatsiya qilinganlarni to‘plash joyini aniqlab oling. Evakuatsiya vaqtida olib ketiladigan hujjatlar va mulkingiz ro‘yxatini tuzing.

Qayiq, sol, boshqa suzuvchi vositalar va ularni yasash uchun qo‘l ostida mavjud materiallar turgan joylarni eslab qoling.

Gidrodinamik avariya xavfi bo‘lganda harakat qilish

Aholi va hududlarni muhofaza qilish choralariga quyidagilar kiradi:

- oldindan aytilgan to‘g‘ri taxminlarning doimo mavjud bo‘lishi;
- yaxshi yo‘lgan quyilgan axborot xizmatining mavjudligi;
- doimo va samarali ishlab turadigan xabar berishning cheklangan tizimi bo‘lishi;
- gidrotexnik inshoot xodimlarining uyushqoqligi, bilimdonligi, intizomligi;
- ehtimoli bor halokatli suv bosish hududida istiqomat qiluvchi aholining favqulodda vaziyatdagi hatti-harakatlarga tayyorgarlik ko‘rganligi;
- fuqaro muhofazasi rahbarlar tarkibining gidrotexnik inshootda falokatlar va halokatlar oldini olish hamda bunday hodisalar ehtimolini paydo bo‘lgandagi va sodir bo‘lgandagi faoliyat masalalari yuzasidan tayyorgarlik ko‘rganligi (zamonaviy vositalar va usullar yordamida sharoitni bilib va tez oldindan taxminlay olish hamda unga baho bera bilish, asosli qarorlarga kela olish va ularni turmushga tezkorlik bilan tadbiq eta bilish);
- muhofaza tadbirlarini bevosita o‘tkazish;
- gidrotexnik inshootda falokat xavfi tug‘ilgani haqida aholiga xabar berish;
- suv ostida qolishi mumkin bo‘lgan hududlardan aholini va moddiy boyliklarni barvaqt evakuatsiya qilish;
- suv bosish ehtimoli bor zonadagi korxona, tashkilot, muassasalar ishini qisman cheklash yoki to‘xtatish hamda moddiy boyliklarni muhofaza qilish;
- darhol hujjatlarni, qimmatbaho va kerakli buyumlarni, 2-3 kunlik oziq-ovqat va ichimlik suv zahiralarini o‘zi bilan olish;
- boshqa narsalarni yo‘qolmaydigan qilib saranjomlab quyish;
- barcha energiya iste‘mol qiladigan narsalarni o‘chirib quyish;
- chorva mollarini xavfsiz joylarga o‘tkazib quyish.

Gidrodinamik avariylar vaqtidagi toshqinda harakat qilish

To‘satdan suv bosishi xavfi paydo bo‘lganda yorish to‘lqini zarbidan saqlanish uchun zudlik bilan yaqin oradagi balandlikdan joy oling, kattaroq daraxtga yoki mustahkam binoning tepa qavatiga chiqib oling. Suvda bo‘lgan vaqtingizda esa yorish to‘lqini yaqinlashayotgan bo‘lsa to‘lqin asosining chuqur joyiga sho‘ng‘ing.

Suvda bo‘lgan vaqtingizda suzib yoki qo‘l ostidagi vositalar yordamida quruq joyga, yaxshisi suv bosmagan hududga yetib olishi mumkin bo‘lgan yo‘lga yoki damba ustiga chiqib oling.

Uyingizni suv bosgan bo‘lsa, elektr tarmog‘ini o‘chirib, uyda odamlar borligini bildirish uchun kunduzi bo‘lsa, oynadan tashqariga yorqin rangdagi matodan bayroq ilib, kechqurun bo‘lsa fonar yordamida signal bering. Ma’lumot olish uchun radiopriyomnikni avtonom tarmoq yordamida ishlatib qo‘ying.

Qimmatbaho buyumlaringizni yuqori qavatlariga va chordoqqa joylashtirib quying. Oziq-ovqat va ichimlik hisobini, ularning kelayotgan suv ta’siridan muhofazasini tashkil eting hamda ularni tejab ishlatib.

Aholini evakuatsiya (ko‘chirish) qilish gidrotexnika inshootlari buzilishi xavfi tug‘ilgan yoki buzilgan hollarda yohud suv havzalaridagi suv sathi ko‘tarilib ketganda (toshganda), shuningdek, ob’ektlarni kundalik faoliyatining turmush kechirish sharoitini ta’minlash tizimlarini suv buzib ketganda o‘tkaziladi.

Aholini evakuatsiya (ko‘chirish) qilish cheklangan yoki mahalliy tasnifda bo‘lishi mumkin. Oldindan o‘tkaziladigan evakuatsiya (ko‘chirish) qilish evakuatsiya qilinadigan aholini yig‘ilish punkti yo‘lga qo‘yiladi (ishlab chiqarish – hududiy prinsipda). Oldindan o‘tkazish davri qisqa bo‘lganda aholini (ko‘chirish) qilish hududiy prinsipga binoan 1 yoki 2 bosqichda evakuatsiya (ko‘chirish) orqali punkti o‘tkaziladi.

Evakuatsiyaga tayyorlanayotib, hujjatlar, birinchi navbatda zarur narsalarni, kiyim-kechak, suv o‘tkazmaydigan poyabzal, qo‘l ostida mavjud qutqaruv vositalari (havo bilan shishiriladigan to‘shaklar, yostiqlar)ni oling.

O‘zingizcha mustaqil evakuatsiya tadbirlarini o‘tkazmang. Bunday harakat faqat suv bosmagan hududni ko‘rganda, sharoitning og‘irlashishi xavfi tug‘ilganida, tibbiy yordam olishning iloji bo‘lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin.

Gidrodinamik avariya dan so‘ng harakatlar

Binoga kirishdan oldin to‘siq va devorlarning shikastlanmaganligiga ishonch hosil qiling. Xonalarni yig‘ilib qolgan gazdan xalos qilish uchun shamollating. Xonalarni to‘liq shamollatmaguncha ochiq olov manbalaridan foydalanmang, gaz ta’minoti tizimi sozligini tekshirib ko‘rishdan o‘zingizni tiying. Elektr simlari, gaz ta’minoti tizimi, ichimlik suv va maishiy chiqindi tarmoqlarining sozligini tekshiring. Ularnig sozligi va ishga yaroqliligi to‘g‘risida mutaxassislar xulosa berganlaridan so‘ngina ulardan foydalanishga ruxsat etiladi. Barcha eshik va derazalarni ochib, xonalarni quriting. Suvda qolgan oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilmang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 7-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasidagi suv omborlari va boshqa suv havzalari, daryolar, magistral kanallar va kollektorlarning, shuningdek, ichimlik suv va maishiy suv ta’minotining, davolash va madaniy-sog‘lomlashtirishda ishlatiladigan suv manbalarining suvni muhofaza qilish zonalarini haqida” 174-son **Qarori**
2. O‘zbekiston Respublikasi “Gidrotexnika inshootlari xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni 1999-yil 20-avgust. Toshkent shahri.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 25-mart kunidagi “O‘zbekiston katta to‘g‘onlar milliy qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 88-sonli **Qarori**.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 26-avgust kunidagi «O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarni oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida» gi 515-sonli **Qarori**.
5. O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi instituti “Aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari (me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami) I tom. “Adolat-2007” To‘ychiev T.B., Tursunov Q.T.
6. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent-2004 yil. A.Azizxo‘jaev, M.Aminov, T.Daminov...
7. Tinglovchilar uchun fuqaro muhofazasi masalalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi. Toshkent-2008 y FMI. A.T.Ortiqov, S.Z.Xalilov.
8. Амиров, М. У., & Эрхонбоев, Н. А. Ў. (2023). «Безопасность жизнедеятельности» современная актуальность изучения науки. Ta’lim fidoylari, 4(1), 153-160.
9. Амиров, М. У., & Эрхонбоев, Н. А. Ў. (2023). Рассмотрение мер по обеспечению личной безопасности и здоровья в сфере безопасности жизнедеятельности. Ta’lim fidoylari, 4(1), 149-152.